



Turdimuratov Yangiboy

O‘zDJTSU Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrası dotsenti, t.f.b. falsafa doktori (PhD),

E-mail: new_rich80@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14258032>

SURXON-SHEROBOD VOHASIDA UY HUNARMANDCHILIGINING ETNOLOKAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada an’anaviy xo‘jalikning asosiy turlaridan biri hisoblangan hunarmandchilik, xususan, uy hunarmandchiligining boshqa an’anaviy turlaridan farqli jihatlari, uning Surxon-Sherobod vohasiga xos etnolokal xususiyatlari, jumladan, vohada keng tarqalgan uy hunarmandchiligi turlari, mazkur sohadagi o‘ziga xos mehnat taqsimoti, mahsulotlar xom-ashyosi va ularni tayyorlash jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: hunarmandchilik, uy hunarmandchiligi, gilamdo‘zlik, kigiz bosish, to‘qimachilik, tikuvchilik, kashtachilik, xom-ashyo, ip yigirish.

O‘zbekiston madaniy merosida xalq hunarmandchiligi alohida o‘rin tutadi. Tabiiy-geografik, iqlim va boshqa omillar ta’siri tufayli an’anaviy hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash uslubi, ko‘rinishi, bezaklari va boshqa xususiyatlaridagi farqlarni, hatto ayni bir mintaqada yashovchi ayrim etnik guruhlar o‘rtasida ham

kuzatish mumkin. An'anaviy hunarmandchilikni talab va ehtiyoj doirasidan kelib chiqan holda 3 ta yo'nalishga bo'lish mumkin: uy hunarmandchiligi, buyurtmaga asoslangan hunarmandchilik va bozor hunarmandchiligi. Uy hunarmandchiligi deganda o'z xojaligi ehtiyojlari uchun shu xo'jalik chegaralarida olingan xom-ashyodan mahsulot ishlab chiqarish tushuniladi.

Uy hunarmandchiligining boshqalaridan muhim farqli jihati shundaki, unda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tovar xususiyatiga ega bo'lmaydi, ya'ni bozorda sotish uchun mo'ljallanmagan. Aniqrog'i mazkur hunarmandchilik yo'nalishida ishlab chiqarilgan mahsulotlar faqat ichki xo'jalik ehtiyojlarida foydalanishga mo'ljallangan. XIX asr oxirlariga kelib, O'rta Osiyoda uy hunarmandchiligida ishlab chiqarilgan ayrim mahsulotlar tovar xususiyatiga ega bo'la boshladi. To'plangan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uy hunarmandchiligi turlari ziroatkor aholiga nisbatan chorvador aholida ko'proq rivojlangan. Buning asosiy sabablaridan biri uy hunarmandchiligi uchun asosiy xom-ashyo asosan chorvachilik mahsulotlaridan olingan.

Surxon-Sherobod vohasi respublikadagi ilk an'anaviy hunarmandchilik madaniyati shakllangan hududlardan biri bo'lib, vohada hunarmandchilikning rivojlanishi va taraqqiy etishida shahar va qishloqlar o'ziga xos lokal xususiyatlarga ega bo'lgan bir qator markaz va maktablarning vujudga kelishiga olib kelgan. Voha qishloqlarida ishlab chiqarish asosan aholining maishiy ehtiyojlariga xizmat ko'rsatuvchi uy hunarmandchiligiga asoslangan edi. Ya'ni, vohadagi chorvadorlar va ziroatkorlar xo'jaligida asosiy mashg'ulotdan tashqari qo'shimcha ravishda uy hunarmandchiligi bilan ham shug'ullanishgan.

Vohada uy hunarmandchiligining asosiy xususiyatlaridan biri mahsulot uchun asosiy xom-ashyoni tayyorlashdan tortib, uni ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha jarayonlarda faqat ayollar ishtirok etgan. Vohaning dasht va dasht oldi hududlarida uy-ro'zg'or hunarmandchiligiga xos ishlab chiqarish shakllari ko'proq taraqqiy etgan [10, 117]. Vohada gilamdo'zlik, kigiz bosish kabi uy hunarmandchiligi turlari keng rivojlangan bo'lib, ular uchun asosiy xom ashyo qo'y juni va terisi hisoblangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, xom-ashyoni tayyorlash jarayoni, jumladan, terini qayta

ishlash, tarash, tekislash (taroqlash), yigirish, kigiz, gilam to‘qish, jun titish kabi ishlar bilan asosan ayollar shug‘ullangan. Qo‘y terisidan tayyorlangan po‘staklar (hasali po‘stak) uy ichida to‘shak sifatida keng qo‘llanilgan [3, 93].

Boshqa hududlarda bo‘lgani kabi vohada ham kigiz, namatlardan o‘tovlarni yopishda, gulli kigizlardan uy ichida to‘shak o‘rnida, xo‘jalik uchun esa qop, xurjun sifatida foydalanilgan. Qirg‘izlar va qozoqlarda yupqa kigizdan kiyim-kechaklar ham tikilgan. O‘rta Osiyo xalqlarida kigiz tayyorlash jarayoni deyarli bir xil bo‘lgan. Qozoqlar va qirg‘izlarda gulli kigizlar tayyorlashda faqat bezaklarida farqlarni kuzatish mumkin. Kigiz tayyorlash jarayonida uy egalari bilan birga qo‘shni ayollar ham ishtirok etgan.

Surxon-Sherobod vohasida kigiz tayyorlash usuliga ko‘ra ikki xil: oddiy gulsiz va gulli kigizlarga bo‘lingan. Gulsiz kigizlar takiyanamat yoki taki namat deb atalgan. Vohada kigizning “tug‘donagul”, “taqirgul”, “tug‘ma baqa”, “gajakgul”, “gultaylama”, “qirqdonagul”, “shoxmola”, “qirdo‘ngil” va “oltido‘ngil” turlari ko‘p tayyorlangan. Kigizdan kalishlar (kovush) uchun pataklar ham tayyorlangan [7, 100]

Eng qizig‘i, kigiz ishlab chiqarish alohida mustaqil hunarmandchilik turiga aylanmagan. Ya‘ni kigiz bosish uni ishlab chiqaruvchilar uchun yagona va asosiy mashg‘ulot turi bo‘lmay, xo‘jalikda ayollar majburiy mehnat jarayoning bir qismi hisoblangan, xolos. Kigiz bosishda ayollar o‘rtasida aniq mehnat taqsimoti bo‘lmagan. Mahsulotni tayyorlash jarayonidagi barcha ishlar ayni bir kishi tomonidan amalga oshirilgan.

Vohada to‘qimachilikning mato to‘qish, tikuvchilik (kiyim-bosh tayyorlash), kashtachilik, bo‘yra to‘qish va gilamdo‘zlik turlari keng rivojlangan. Ayniqsa, gilam to‘qish aholi xo‘jaligi va turmush tarzida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyoda gilam ishlab chiqarishning uchta asosiy turi mavjud: gilam (qisqa tukli gilam), julxurs (uzun tukli gilam) va sholchalar. Hududlarda gilam ishlab chiqarish, asosan texnologiyasi va rangining xilma-xilligi bilan ajralib turgan [12, 56]. Gilamchilik ayollarning uy hunarmandchiligi sifatida deyarli har bir xo‘jalikda keng rivojlangan.

Ayniqsa, gilamchilikda an'anaviy ko'rinish, turli-tumanlilik, shuningdek, o'ziga xos lokal xususiyatlar saqlanib qolganligi bilan ajralib turadi.

Gilamdo'zlik uyda ayollar ishlab chiqarishiga asoslangan bo'lib, gilamdo'z ustalar o'ziga xos tukli va tuksiz gilamlar ishlab chiqarishning turlicha texnikasiga ega bo'lganlar [17, 17-20]. Vohada tojik ayollari jundan naqshli namatlar (kigizlar) tayyorlashgan va hatto o'tov uchun tukli mahsulotlar ham to'qishgan [14, 74-75]. Shuningdek, vohaning g'ajari va terma gilamlari o'zining murakkab to'qilish uslubi bilan ajralib turadi [12, 58]. Shu bilan birga, shol gilam, patli gilam, julxurs, arabi gilam, g'ajari gilam to'qish keng rasm bo'lgan [3, 73].

Voha gilamchiligining muhim qismini mayda maishiy gilam mahsulotlari: ishlik-xalta va qoshiq-xalta (oshxona anjomlari uchun xaltalar), bug'joma (uy-ro'zg'or buyumlarini o'rash uchun to'qilgan mato), xurjinlar (egar to'rlari), napramach (to'qilgan sandiqlar), dasturxonlar tashkil etgan. Gilam to'qish uchun ishlatiladigan dastgoh – do'kon deb atalgan. Bunday dastgoh ko'chmanchilar madaniyatga xos bo'lib, u doimiy ko'chib yurish sharoitida qulay bo'lgan. Sababi mazkur dastgoh statsionar sharoitlarni talab qilmagan, uni o'rnatish va yig'ish esa oson bo'lgan [16, 167].

Odatda, gilam to'qish uchun qo'y junidan yoki ayrim hollarda paxta ipidan ham foydalaniladi. Bitta gilamga 8-12 kilogramgacha xomashyo kerak bo'ladi. Axborotchilarning ta'kidlashicha, kuzgi qirqim jundan yaxshi gilam tayyorlab bo'lmaydi. Chunki aynan bahorgi jun uzun va mayin gilambop bo'ladi. Kuzgi jun esa qattiq va dag'al bo'lib, asosan kigiz bosish uchun ishlatiladi.

Termiz va Sherobod shaharlarida to'qilgan gilamlar O'rta Osiyodan tashqari Rossiya va butun G'arbiy Yevropada ham mashhur bo'lib, yuqori narxlarda sotilgan. Bir qancha gilam turlari Parij shahri ko'rgazmalariga ham qo'yilgan va yuqori baholarga sazovar bo'lgan [20, 68]. Sherobod bekligida to'qilgan sifatli gilamlarni savdogarlar Qarshi, Karki, va Shahrisabz shaharlari bozorlariga va hatto, Amudaryo orqali Afg'oniston va Hindistonga ham olib borib sotishgan [13, 377]. Sherobod bekligida o'zbeklardan tashqari turkman va afg'onlar ham gilam to'qish bilan

shug‘ullanishgan. Turkmanlar gilamdan tashqari koshma (chakmonning bir turi) ham to‘qishib, kuzda bozorlarda 500 tagacha koshma sotishgani haqida ma’lumotlar uchraydi [9, 25].

To‘quvchilik qadimdan rivojlanib kelgan yetakchi hunar turlaridan bo‘lib, sohaning asosiy xomashyo manbai vohada taraqqiy qilgan dehqonchilik va chorvachilikdan olingan paxta, ipak, kanop va jundan iborat bo‘lgan [11, 258]. Gilam to‘qish uchun asosiy xom-ashyo bo‘lgan jun va paxtani ayollar uyda urchuqda ip qilib yigirishgan. Tayyorlangan kalavaning bir qismi shaharlardagi to‘quvchilarga sotilgan, qolgan qismidan esa o‘z ehtiyojlari uchun foydalanishgan. Chunki ip yigirish ayollarning qishdagi asosiy uy mashg‘ulotlaridan biri hisoblangan [10, 122].

Vohada qadimdan uy sharoitida mato to‘qish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, to‘qimachilikda zarur bo‘lgan xomashyo manbai xo‘jalikning o‘zida tayyorlangan. Jun titish va jundan mato tayyorlash hunarmandchilikning boshqa turlariga o‘xshab alohida kasbkor bo‘lib chiqmagan [4, 8]. Lekin jundan tayyorlangan mahsulotlar va kiyim-boshlarga nafaqat chorvachilik, balki o‘troq dehqonchilik hududlarida ham ehtiyoj katta bo‘lgan. Ayniqsa, qo‘y va tuya junidan asosiy xomashyo sifatida foydalanib, tuya junidan chakmon va boshqa kiyimlar tayyorlaganlar. Vohada qo‘y junidan tayyorlangan ipni o‘rmakdan o‘tkazib “shol mato” ham tayyorlangan [2, 110].

Ta’kidlash kerakki, O‘rta Osiyoning barcha yarim ko‘chmanchi aholisi mato to‘qishda jun tayyorlash va uni ip shakliga keltirishda deyarli bir xil usulni qo‘llashgan. Eng asosiysi, jun oldin yuvilib, titilib va kerak paytda bo‘yalgan. Jundan ip qilishda maxsus urchuqdan, uni titish va savashda maxsus tayyorlangan savacho‘plardan foydalanilgan [7, 112]. Qo‘l urchuqlari qaraqalpoqlarda – urshik, turkmanlarda – ik, qirg‘izlarda – iyk deb atalgan [15, 231]. Vohada echki junidan tivit salla, paytava, fo‘ta tayyorlash, qo‘y terisidan po‘stin tikish keng rasm bo‘lgan.

Surxon-Sherobod vohasida to‘qimachilik hunari o‘ziga xos bo‘lib, ayniqsa, Boysun va Denov tumanlarida juda yaxshi taraqqiy etgan edi. Chunonchi, asosan uy sharoitida sidirg‘a va guldor ip, ipak va yarim ipak matolar to‘qilgan. Bundan tashqari, jundan shol, bosma, qoqma kabi matolar to‘qilgan va bu matolardan asosan ustki

kiyimlar tayyorlangan. To‘qimachilik tarkibida ip yigirish, mato to‘qish va bo‘yash kabi bir necha tarmoqlar bo‘lgan.

Vohada to‘qimachilikning kashtachilik hunarmandchiligi, ya’ni qo‘l kashtachiligi o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Shuningdek, aksariyat hollarda kashtachilik buyumlari bozorga mo‘ljallanmagan bo‘lib, asosan, xonadon ehtiyojini qondirish, urf-odatlarini davom ettirish uchun tikilgan. Vohada kashta buyumlarining “kirpech”, “dorpech”, “so‘zana”, “choyshab”, “chorsi”, “ro‘molcha” kabi turlari va “popuk”, “iroqi”, “chaqmoq”, “yo‘rma” deb ataluvchi choklari keng tarqalgan [18, 47-49].

Vohadagi deyarli barcha xo‘jaliklarda kashtadan devorlarga osish uchun palak, gulko‘rpa, so‘zana, devorning yuqori qismiga esa zardevor, joypo‘sh, kirpech, buyumlarni o‘rash uchun bo‘g‘joma, namoz o‘qishga joynamozlar ham tikilgan. Uylar xonalarini kashtali so‘zana, gulko‘rpa, zardevor, choyshab, kirpech (sidirg‘a chokli palak) kabilar bilan bezatishgan. Uy anjomlaridan – sandalpo‘sh, joynamoz, joypo‘sh (kelin-kuyov yopinib yotadigan gulli choyshab), oyna xalta, taroq xalta, tuz xalta yoki qoshiqlor, dastro‘mol, nimcha, do‘ppi, ko‘ylaklarning yoqa va etaklari, kashta yenglar, paranji, keyinchalik ayollar jelaklariga ham kashtalarning tikilishi, hatto oyoq kiyimlaridan kovush, mahsi, etiklarni ham kashta bilan bezatishganligi ham bu hunar turining alohida o‘ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

Voha aholisining murakkab etnik guruhlar madaniyatlarining qorushuvidan tashkil topganligi kashtachilikning o‘ziga xos lokal xususiyatlariga sabab bo‘lgan. Chunonchi, Sho‘rchi, Denov va Sherobod kashtachiligi tog‘li tuman Boysun kashtachiligidan ancha farq qiladi. Boysun kashtachiligida boy o‘simliksimon naqshlar asosiy rol o‘ynab, unda Tojikistonning tog‘li tumanlari kashtachiligi an‘analari umumiy lashib ketgan bo‘lsa-da, baribir vohaga xos mahalliy xususiyatlar sezilab turadi [19, 77-80]. Voha kashtachiligining Buxoro, Samarqand va Shahrisabz kashtachilik markazlaridan farqlanuvchi tomonlari uning ranglaridan tashqari oq matoga yirik gullar bilan kashta tikishdadir.

Kashtachilik mahsulotlari xom ashyosini tayyorlash o‘ziga xos tartibda amalga oshirilgan. Dastlab jun iplar (kalava) sho‘r suvga solib, qaynatilgan. Kalava asosan tuzli suvda qaynatilganligi uchun pishiq va chidamliligi bilan ajralib turgan. Kalava ko‘proq tuzli suvda qaynatilganligi bois uning zahri kesilgan. Bunga sabab, junni tayyorlash ishlari qo‘lda bajarilgani uchun ish jarayonida qo‘lga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, turli teri kasalliklariga sabab bo‘lgan. Jun iplar qozonda qaynatilgandan so‘ng, olib quritilgan. Ular yaxshi qurigach, yana toza suvda yuvilgan va pishiq, mustahkam, chidamli bo‘lishi uchun xamir qorishmasiga ham solingan [6, 94].

Boysun tumani Gumatak qishlog‘ida qora bo‘yoqni *tatum* degan daraxt mevasidan, sariq bo‘yoqni yong‘oq daraxtida o‘sovchi zamburug‘dan, qizil bo‘yoqni esa yovvoyi ro‘yandan oladilar. Bo‘yoq sifatida yana jiyda, o‘rik, terak ildizlaridan foydalanadilar, ular qizil va jigarrang bo‘yoq olishda juda qulay. Ammo bu bo‘yoqlarda bo‘yalgan junlarning rangi tiniq chiqmaydi, ko‘rinishi jihatdan biroz xiraroq ko‘rinadi [4, 8].

Surxon-Sherobod vohasi dasht, tog‘li va tog‘oldi mintaqalarida chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi qo‘ng‘irotlar orasida jundan kiyimlar va kundalik xo‘jalik mahsulotlaridan chakmon, po‘stin, turli xildagi gilamlar, xalta, xurjunlar tayyorlash rasm bo‘lganligi bois, jundan ip yigirish ham aynan mazkur mintaqalarda keng taraqqiy etgan. Tadqiqotchilar Boysun va Nurota qo‘ng‘irotlarining XIX asr va XX asr boshlaridagi gilamlarida aks etgan bezak-naqshlarida ko‘pgina o‘xshashlik mavjudligini ta’kidlashadi. Bunga sabab, ikkala tumanda yashovchi qo‘ng‘irotlarning azaliy o‘zaro oilaviy munosabatlaridan darak beradi [5, 27].

Surxon-Sherobod vohasida uy hunarmandchiligi mintaq va mahalliy aholi tarixidan chuqur ildiz otgan bo‘lib, u etnik guruhlarning o‘ziga xosligi, dunyoqarashi, dini, turmush tarzi va an‘analarini aks ettiradi. Tarixan uy hunarmandchiligining rivojlanishi tovar-pul munosabatlarining sustligi va natijada aholi turmush tarzi uchun zarur bo‘lgan deyarli barcha uy-ro‘zg‘or buyumlari mustaqil ravishda ishlab chiqarilganligi bilan bog‘liq iqtisodiyotning rivojlanishiga asoslangan edi. Uy

hunarmandchiligi nafaqat turli xalqlar xo‘jaligida, balki ular iqtisodiyotida ham muhim rol o‘ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди. 2005.
2. Борозна Н.Г. Материальная культура узбеков Бабатага и долины Кофирнигана // Материальная культура Средней Азии и Казахстана. – М., 1974.
3. Бўриев О. Хўжамбердиев Т. Ўзбек халқи боқий қадриятлари (Этнотарихий лавҳалар). – Қарши: Насаф. 2005.
4. Гюль Э. Қўнғирот гиламлари // Мозийдан садо. 2004 – №1.
5. Гюль Э. Ковроткачества Байсуна // История и традиционная культура Байсуна. Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 2. – Т., 2005.
6. Давлатова С.Т. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.
7. Davlatova S. O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida). – Т.: Yangi nashr. 2018.
8. Исмоилов Ҳ. Анъанавий ўзбек кийимлари. – Т., 1978.
9. Кап. Гинтилло. Интендантские сведения о Бухаре 1885 г // Сб. геог. топог. и статис. мат. По Азии. – СПб., 1886. Вып XXI.
10. Кармышева Б. Х. О торговле в восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией. Товарно-денежные отношения на ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – М.: Наука, 1979.
11. Кармышева Б. Х. Ткачество и прядение у народов южных районов Таджикистана и Узбекистана (XIX – начало XXв.) // Проблемы типологии и этнологии. – М., 1979.
12. Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX – XX вв. – Т.: Фан, 1986.

13. Полк. Галкин. Военно-статистический очерк Бухарском ханстве и южной части Самаркандской области // Сб. геог. топог. и статис. мат. по Азии. – СПб., 1894. Вып. 57.
14. Султанов М.Х. Этнографические наблюдения в Сурхандарьинской области // Материалы по истории Узбекистана. – Т., Фан, 1966.
15. Томина Т.Н. Ткани в одежде кочевых и полукочевых народов Средней Азии // Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1989.
16. Турдимуратов Я. ОСОБЕННОСТИ ТРАДИЦИОННОГО ХОЗЯЙСТВА В ЭТНОЭКОНОМИКЕ СУРХАН-ШЕРАБАДСКОГО ОАЗИСА В НАЧАЛЕ XX ВЕКА // Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 165-175.
17. Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусства Узбекистана. – Т., 1972.
18. Ёроқов М. Б. Каштадўзлик ва тўқимачилик ҳунарларига оид атамалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. №6.
19. Ёроқов М. Б. XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошларида ўзбек хотин-қизларининг чеварчилиқ касб-ҳунари // Общественные науки в Узбекистане. 1998. №1.
20. Хакимова К.З., Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. – Т.: Фан, 1980.

Этнолокальные особенности домашних промыслов Сурхан-Шерабадского оазиса

Аннотация. В данной статье анализируются ремесло, которое считается одним из основных видов традиционного хозяйства, в частности, аспекты домашних промыслов, отличающиеся от других традиционных видов, этнолокальные особенности, характерные для Сурхан-Шерабадского оазиса, в том числе виды домашних промыслов, которые широко распространены в

оазисе, своеобразное разделение труда, сырье продуктов и процесс их приготовления.

Ключевые слова: ремесло, домашнее ремесло, ковроткачество, войлоковаляние, ткачество, шитье, вышивка, сырье, прядение.

Ethnolocal features of home crafts of the Surkhan-Sherabad oasis

Abstract. This article analyzes the craft, which is considered one of the main types of traditional economy, in particular, aspects of household crafts that differ from other traditional types, ethnolocal features characteristic of the Surkhan-Sherabad oasis, including types of household crafts that are widespread in the oasis, a kind of division of labor, raw materials of products and the process of their preparation.

Keywords: craft, home craft, carpet weaving, felting, weaving, sewing, embroidery, raw materials, spinning.